

**TERILARIGA ISHLOV BERISH VA SIFATLI MAHSULOT TAYYORLASHNING MUHIM  
JIXATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14059452>

**Hamroqulov Behzod Eshtemir o'g'li**

*mustaqil tadqiqotchi.*

**Annotatsiya:** *ushbu tezisda qorako'l terilariga ishlov berishda va terilarni eksportga sifatli tayyorlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jixatlar haqida soha olimlarining olib borgan tadqiqotlarini natijalari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qorako'l teri, qorako'lcha, gul tiplari, rangbaranglik, terini oshlash, pardozlash.*

Qorako'lchilik sohasi mamlakatimiz chorvachiligining muhim tarmoqlaridan biridir. Asrlar davomida o'z qadr-qimmatini saqlab kelayotgan milliy boyligimiz- qorako'l terilari, mana necha asrdiki, hamon o'z haridoriga ega. Ushbu terilar nafaqat tashqi go'zalligi bilan, balki tabiiy toza mahsulot ekanligi, yillar davomida ham o'z sifatini yo'qotmasligi bilan ham mashxur. Bunday terilar o'z jozibasi va sifatini saqlab qolishida terilarni qayta ishlash jarayonlarini to'g'ri tashkil etilishi muhim hisoblanadi. Terini asl sifatini pasaytirmasdan, yanada haridorgir qilib qayta ishlashning o'ziga xos murakkabliklari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qorako'lchilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan 2017 yil 16- martidagi PQ-2841 – sonli “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi va 2018 yil 14- martdagi PQ-3603 sonli – “Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida” gi qarorlarida ushbu muhim tarmoqni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish, seleksiya-naslchilik ishlari samaradorligini ko'tarish, mahsulotga zamonaviy usullarda qayta ishlov berish va boshqa muhim muammolarning yechimini topish ko'zda tutilgan.

Qorako'l teri mahsuloti bir necha xil bo'ladi.

**Gulak-** embrional rivojlanishning 115-128 kunlik bosqichida chala tug'ilgan homiladan shilib olingan teridir. Bunday terilar mayda bo'lib, butun yuzasi silliq, ancha kalta, siyrak, yopishib turadigan muar naqshli jun bilan qoplangan bo'ladi. Agar sag'risi va orqa qirra sohasi yaxshi sezilib turadigan, jun bilan qoplanmagan bo'lsa, u nostandart teri jumlasiga kiritiladi.

**Qorako'lcha-**embrional rivojlanishning 127-134 kunlik bosqichidagi homilalar terisi bo'lib, birmuncha maydaroq, kalta, mezdraga yopishib turadigan endigina ko'tarilib kelayotgan, yaltiroq, ipaksimon jun bilan qoplangan, ozmi-ko'pmi ifodalangan guli bor,

ammo jingalaklari hali yaxshi shakllanmagan. Jingalaklari qanchalik ifodalanganligiga qarab ular sortlarga ajratib baholanadi.

**Qorako'l-qorako'lcha-** embrional rivojlanishning 134-140 kunlik bosqichida bo'lgan homiladan shilib olingan teridir. Ular birmuncha yirikroq bo'ladi. Muychalari kalta ipaksimon, yaltiroq. Jingalaklari ingichka, jun tolalari uchi jingalaklar uchiga qayrilib kirmagan, ammo ingichka qalamgul jingalaklari bilan ingichka yolgullarning tipi yaxshi bilinib turadi.

**Qorako'l-** qorako'lchilikning asosiy mahsulotidir. U yangi tug'ilgan qo'zilardan olinadi. Terining sirti zich, qayishqoq, ipaksimon, yaltiroq jun bilan qoplangan. Jun tolalari g'aroyib shaklda egilib, xilma-xil jingalaklar hosil qiladi.

**Yaxabob-** 10-40 kunlik chog'ida nobud bo'lgan qo'zilardan shilib olingan teridir. Bunday terilar yirik, juni o'ta o'siq, uzun bo'lib har xil shakldagi bo'sh jingalaklar hosil qiladi. Bo'ynining chetlaridagi jun kokilchalarining uzunligi 4-5 sm keladi.

**Po'stinbop terilar-** 2-4 oylik qo'zilarning terisi sirti uzun, yumshoq, jingalaksimon jun bilan qoplangan bo'lib, halqasimon o'rma yoki parmasimon kokilchalar hosil qiladi.

Qorako'l xom ashyosini dastlabki ishlash jarayoni qo'zini to'g'ri so'yishdan boshlanadi. So'yib olingach, teridagi yog' qoldiqlari va turli iflosliklardan tozalanadi. Agar yaxshi tozalanmasa, teri to'qimasi ichiga (mag'ziga) tuz hamda eng yaxshi konservalash uchun ishlatiladigan antiseptik moddalar singib kirishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Terilarni konservalashdan maqsad- chirituvchi bakteriyalar yashashi va rivojlanishi mumkin bo'lmagan noqulay muhit vujudga keltirishdir. Terilar turli usulda: quruq tuzlash va tuzsiz quritish yo'li bilan konservalanishi mumkin.

Terining gistologik tuzilishi va kimyoviy tarkibiga qarab qorako'l terilar turli xil konservalovchi moddalar, antiseptik vositalar va konservalash usullaridan turlicha ta'sirlanadi.

Terilar vaznining 70 % ga yaqin qismini suv tashkil qiladi. Chin terining ustki qismida, xususan so'rg'ichli qatlamida suv juda ko'p bo'ladi. Epidermisning shox qatlamida esa kam. Birlamchi konservalash paytida terilar ko'p miqdorda suv yo'qotadi.

Ishlov berish jarayonida qorako'l terilar bir qator fizik-mexanik va kimyoviy ta'sirlarga uchraydi va shu ta'sirlar natijasida unda kattagina o'zgarishlar sodir bo'ladi: yuzasining kattaligi, teri to'qimasining yupqaligi, jun tolalarining qalinligi, tola o'qining og'ish burchagi va umuman butun qorako'lning sifati ancha o'zgaradi. Biroq ishlov berish jarayonida ayrim topografik qismlari bir xilda o'zgarishsiz qoladi.

Barcha ishlov berish jarayonlarida teri to'qimasining zichlanishi tufayli terilar kirishadi, natijada ularning kattaligi o'zgaradi. Shu bilan birga terilar bo'yiga nisbatan eniga qarab 8,7 % ko'proq kirishadi. Barcha texnologik ishlov berish jarayonlarida terilar chetlaridan ( qorni va yonboshlaridan) orqasining o'rta dorzal chizig'iga, shuningdek, sag'risidan yag'riniga va boshiga qarab kirishadi.

Pardoz berish va bo'yashda oshlovchi moddalar va boshqa kimyoviy moddalar ta'sirida teri to'qimasi ancha zichlashadi va eng ko'p kirishadi. Terilarni dastlabki ishlashda jun tolasining formasi va buralganligi saqlanib qolishiga jingalak ochiq tomonining yo'nalishi katta ta'sir etadi.

Jingalagining ochiq tomoni dorzal-krannial yo'nalishda bo'lgan, ya'ni, orqasi va boshiga qarab yo'nalgan terilar kirishganda jun tolasining buralganligi yaxshilanadi, gulining aniqligi ortadi, terining tovar qo'rinishi yaxshilanadi.

Jingalagining ochiq tomoni dumiga hamda orqasidan yonboshiga va qorniga qarab yo'nalgan terilarning to'qimasi kirishganda jingalaglari bamisoli yechilgan, ochilib ketgan tusga kiradi. Gulining aniqligi yo'qoladi va teri tovar ko'rinishga ega bo'lmay qoladi.



Hulosa qilib aytganda, qo'zini so'yish, terisini shilib olib, uni turli iflosliklardan tozalash, terini oshlash, pardozlash, taroqlash, bo'yash jarayonlaridan tashqari qorako'l terisini konservalash, ularni klasslash, saqlash va jo'natish kabi jarayonlarda ham har qanday kichik xatolikka yo'l qo'ymaslik teri sifatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. bu jarayonlarni har biri mas'ul xodimdan chuqur bilim talab qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduzoirova D.Yu. Har xil rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarining gul xususiyatlari. *Journal of Advanced Research and Stability*. 2022. Vol:02. 269-271p.

2. Бобокулов Н. А., Хатамов А. Х. СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНЫХ ПАСТБИЩ ПРЕДГОРНОЙ ПОЛУПУСТЫНИ И ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРОДУКТИВНОСТИ ЖИВОТНЫХ С ИХ ЭТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКОЙ //ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ НАУКИ В XXI ВЕКЕ. – 2016. – С. 436.

3. Zokirov M.J., Sharofiddinov F.Sh., Hamroqulov D.Yu. Qorako'lshunoslik. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1976. 215 bet.

4. Kh K. A. Growth and Development of Young Karakul Sheep of Different Ethological Types //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – T. 12. – С. 22-25.

5. Kh, Khatamov A. "Relationship of Karakul Sheep Productivity with Their Ethological Characteristics." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 1.6 (2021): 156-158.

6. Хатамов А. Х., Бобокулов Н. А., Попова В. В. ОПТИМИЗАЦИЯ ПРИЕМОВ ВЫПАСА КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ КАРАКАЛПАКСКОГО СУРА РАЗНЫХ ЭТОЛОГИЧЕСКИХ ТИПОВ //СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ. – 2017. – С. 1411-1414.

7. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – С. 127-131.

8. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 10. – С. 130-132.

9. Yusupov H. Respublikaning janubiy mintaqalarida qorako'l qo'ylarining qimmatli assortimentdagi qorako'l yetishtiruvchi yuqori mahsuldor suruvlarni yarataylik. //Zooveterinariya. 2012yil. №12. 36-39 b.